



O'Z SHAXSINGIZNI BILASIZMI? LEONGARD BO'YICHA SHAXSNING 10 TOIFASI.

Shukurova Sevinch Durbekovna

Qarshi Xalqaro Universiteti

Boshlang'ich Ta'lim yo'nalishi talabasi

+998948682601

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8375057>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-September 2023 yil

Ma'qullandi: 23-September 2023 yil

Nashr qilindi: 25-September 2023 yil

KEYWORDS

Namoyishkor shaxs, rasmiyatchi shaxs, qotma shaxs, distimik shaxs, gipertim shaxs, ta'sirchan shaxs, xushchaqchaq shaxs, havotirli shaxs, emosional shaxs, siklotimik shaxs, siklotomiya, gipertimiya, distimiya.

ABSTRACT

Ushbu maqola shaxs toifalari haqida bo'lib, har bir inson qaysidur toifaga mansubdir. O'z shaxsingizni toping!.

Birinchi toifa. "Namoyishkor shaxs".

Bu toifaga kiruvchi shaxslarning xulq – atvorida namoyishkorlik doimo sezilib turadi, barcha xatti – harakatlarini oshkora bajarishni ma'qul ko'rishadi. Atrofdagilar bilan oson va tez muloqotga kirishadi, harakatchan va ishchan bo'ladi. Yolg'on gapirishga o'ta usta, hayolparast bo'ladi. Har qanday ishga tavakkal qilib qo'l o'rib ko'radi. Atrofdagilar bilan juda tez til topishib ketadi, har qanday vaziyatda ham tez moslashib ketadi. Suhbat davomida uning fikri noto'g'riligi bildirilsa, o'z foydasiga janjalni yuzaga keltiradi. Bunaqa shaxslar doimo diqqat – e'tiborda bo'lishni xohlaydi, maqtovga chanqoq bo'ladi. Agar atrofdagilar uni maqtashmasa, o'zini o'zi maqtaydi. Suhbatdoshini e'tiborini jalb qilish uchun turli xil yolg'onlar o'ylab topadi. Uning oldida birovni maqtashni foydasi yo'q. Chunki bu uning kayfiyatini tushirib yuboradi, bunday vaziyatda yana o'zini maqtab ketadi yoki suhbatni to'xtatib qo'ya qoladi. Agar uning gaplariga e'tibor qilinmasa, tez jaxli chiqadi. Jamoaga yetakchilik qilishni yoqtiradi. Ularning fikrlash doirasi keng bo'ladi va ba'zan insonni hayratda qoldiradigan ishlarni bajarib, yutuqlarga erishishadi.

Ikkinchi toifa. "Rasmiyatchi shaxs".

Sinchkov, maydakash va o'ta rasmiyatchi shaxs. Janjal va kelishmovchiliklarga kam aralashadi, agar janjalli vaziyatlarga to'g'ri kelib qoladigan bo'lsa, o'zini chetga oladi va passiv ishtirokchiga aylanadi. Qo'l ostida ishlaydiganlarga juda ko'p vazifa va talablar yuklab tashlaydi. O'z ishiga juda puxta, o'ziga va boshqalarga nisbatan juda talabchan. Har bir ishni reja asosida bajaradi. O'z ishlarini shoshmasdan yuqori darajada sifatli bajarishga harakat

qiladi. O'z tez – tez tekshirib turadi. Rasmiyatchilik uning hayot tarziga aylangan bo'lib, vaziyat taqazo qilsa mansabidan ham osonlikcha vos kechadi. Og'ir tabiatli va o'ch olishga moyil shaxs.

Uchinchi toifa. "Qotma shaxs".

Atrofdagilar bilan tez muloqotga kirishib ketolmaydigan, kamgap odam. Kam gapiradi ammo nasihat qilishni yoqtiradi. Atrofdagilar xafa qilsa, ancha vaqt o'ylab xafa bo'lib yuradi. Tez ranjiydigan, hamma voqealarga shubha bilan qaraydigan shaxs. U bilan sodir bo'lgan voqealarni eslab ancha vaqt siqilib yuradi, xafagarchiliklardan oson chiqolmaydi va qasoskor bo'ladi. Har qanday voqeani ichiga saqlaydi va shuning uchun ham uning fikrini bilib olish ancha qiyin. O'ziga qattiq ishonadigan, boshlagan ishini oxirigacha tugatadigan shaxs. Qaysar, o'jar va tez –tez hissiy qo'zg'alishlar sodir bo'lib turadi. Xulq – atvorida ranjish, rashk, gumonsirash, tez xafa bo'lish kabi turli hislatlar namoyon bo'ladi.

To'rtinchi toifa. "Distimik shaxs".

Bu toifaga kiruvchi shaxs o'zining jiddiyligi bilan ajralib turadi. O'ta bosiq va kayfiyati past bo'ladi. Harakatlari sust bo'lib, o'z imkoniyatlarini past baholaydi. Atrofdagilar bilan kam suhbat qiladi. Jamoa joylarida ham suhbatga aralashmay jim o'tiradi. Ko'chaga chiqmay uyda o'tirishni afzal ko'radi. To'g'rilik va haqiqatga intilsada, o'z fikrini bayon qilishga qiynaladi. Bunday shaxslarni o'troq hayot kechiruvchi deb atash mumkin. Biroq unga yaqinlashishga harakat qiluvchilarni hurmat qiladi. Do'stlikni qadriga yetadigan shaxs hisoblanadi.

Beshinchi toifa. "Gipertim shaxs".

Gipertimiya – yuqori kayfiyatga ega va hissiyotga boy degani. Bu toifaga kiruvchi shaxs yuqori darajada harakatchan, mimikalarga boyligi bilan ajralib turadi. U har qanday odam bilan tez muloqotga kirishib keta oladi. Suhbat jarayonida dastlabki mavzudan chetga chiqib ketadi. O'z tengdoshlari ichida e'tiborda bo'lishni, ularni boshqarishni xohlaydi. O'ziga yuqori baho beradi, chaqqon, quvnoq hayotni hayotni yoqtiradi. Bunaqa shaxs juda ajoyib suhbatdosh bo'ladi. Bajarayotgan ishida kimdir xatolik topsa yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrayotgan bo'lsa, jaxli chiqadi va g'azabi qo'zg'aladi. Ba'zan o'z vazifalariga yuzaki qaraydi. Hayot tarzida bir xillikni va yolg'izlikni yoqtirmaydi. Ba'zan axloqsiz ishlarni ham qilib turadi.

Oltinchi toifa. "Ta'sirchan shaxs".

O'z tuyg'ularini jilovlay olmaydigan, qo'pol, janjalkash va tez g'azablanadigan shaxs. Atrofidagilar bilan ham kelisholmaydi, doimo janjalning o'rtasida yuradi. Odamlar o'rtasida kelishmovchiliklar chiqishiga sabab bo'ladi. Aksariyat holatda janjalning muallifi uning o'zi bo'ladi. Bir ishda davomiy ishlolmaydi. Atrofidagi odamlar bilan til topishib ketolmaydi. Bunaqa insonlarda ma'lum bir soha yoki ilm o'rganishga ishtiyoq ham xohish ham bo'maydi. Kelajakga juda befarq. Odatda o'zidan kuchsiz insonlar bilan muloqot qiladi va ularni bo'ysundirishga harakat qiladi. Bugunki kuni yashaydi va o'yin – kulgiga o'ta o'ch bo'ladi.

Yettinchi toifa. "Xushchaqchaq shaxs".

Bu toifaga kiruvchi shaxslarda ko'zga tashlanib turadigan hislatlari – o'ta xursandchilik, zavqlanish, shodlanish hissidir. Uning e'tiborini quvonchli voqealar darrov torta oladi. Xuddi shunday g'amgin voqealar uning kayfiyatini tushiradi. Muloqotga tez kirishib ketuvchi va yoqimligi bilan boshqalardan ajralib turadi. Shu sababdan ham bunaqa shaxslarni ko'pchilik yoqtiradi. Janjalni yomon ko'radi va hech qachon vaziyatni bunga olib bormaydi. Vaziyatga qarab yo faol yo passiv ishtirokchiga aylanadi. Bunaqa insonlar yaqinlari va do'stlariga bog'lanib yashaydi. His – tuyg'ularni yashirmay namoyon qila oladi. Kutilmaganda kayfiyati

tez o'zgarishi va o'z dardini doim doston qilishga tayyor. Shuning uchun ham ularni betakror shaxs deyishadi.

Sakkizinchi toifa. "Havotirli shaxs".

Bu toifaga kiruvchi shaxs tez muloqotga kirishib keta olmaydi, doimo havotirda yuradi, qo'rqqoq va o'quvsiz bo'ladi. Bunaqa insonlar qorong'ilikdan, uyda yolg'iz qolishdan va hayvonlardan qo'rqadi. O'z tengdoshlariga qo'shilib ketolmaydi, ulardan o'zini uzoqqa oladi. O'ziga nisbatan ishonchsizlik kuchli. Biron joyda gapirishi kerak bo'lsa, uyalib, qattiq terga botadi. Shu bois o'z xohishi bilan hech qachon minbarga chiqmaydi. Bolalik paytidan mavjud bo'lgan uyatchanligi va tortinchoqligi sababli, katta bo'lganidan keyin ham o'zi xohlagan odamlar bilan tezda muloqotga kirishib ketolmaydi. Ko'p gap ko'tara olmaydi, agar uni nohaq ayblashsa, o'zini himoya qila olmaydi. Bunday shaxs bilan do'stona munosabatlarni boshlash ham oson. Janjalli voqealarga kam aralashadi. Xulq – atvoridagi kamchiliklarni o'zi ham biladi. Uni mehr izlovchi shaxs deb atash mumkin.

To'qqizinchi toifa. "Emosional shaxs".

Bu toifaga kiruvchilarning xulq – atvoridagi xislatlar bir qaraganda juda quvnoq odamlarga o'xshab ketadi. Ammo emotsional toifaga kiruvchilar o'z harakterlarini yaqqol namayon qilishmaydi, ya'ni ular niqoblangan bo'ladi. Ularda ko'p uchraydigan xislatlar – insonparvarlik, odamlar va hayvonlarga nisbatan mehr – shafqat va mehribonlikdir. Tashqi ta'sirga juda tez beriladi, hayotda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar tez ta'sir qiladi va bunaqa vaziyatlarda yig'lab turadi. Hattoki kinofilmlardagi ta'sirli obrazlar ta'sir qiladi va ancha vaqt kayfiyati bo'lmay yuradi. Ba'zi holatlarda esa yomon tushlar ham ko'rib chiqadi. Janjallarga kam qo'shiladi, xafa bo'lsa ichiga yutadi. O'z burchiga nisbatan sadoqati juda kuchli bo'ladi va o'z topshiriqlarini bajarishda ilg'or bo'ladi. Bu toifaga kiruvchi insonlar tabiatni sevadi, o'simliklarni parvarish qilish, hayvonlarni yoqtirish, bu ishdan zavq oladi.

O'ninchi toifa. "Siklotimik shaxs".

"Siklotomiya" – grekchadan "kayfiyat, xis – tuyg'u" degani. Yuqori kayfiyat va buzuq kayfiyat holatlarining bir – biri bilan almashinib turishi bilan namoyon bo'ladi. Bunaqa shaxsning kayfiyati tashqi ta'sirga juda bog'liq bo'ladi va tez – tez o'zgarib turadi. Ba'zan hech qanaqa sababsiz kayfiyati buzilishi mumkin. Yuqori kayfiyatda bo'lganida, faolligi oshadi va juda ishchan bo'lib qoladi. Hattoki tashlab qo'ygan ishini boshidan boshlaydi, miyasiga zo'r g'oyalar kela boshlaydi. Bunday holat **"Gipertimiya"** deb ataladi. Agar to'satdan g'amgin voqealar sodir bo'la boshlasa, barcha qilayotgan ishlarini to'xtatib qo'yadi, kayfiyati buziladi, kamgap bo'lib qoladi. Bu holat esa **"Distimiya"** deb ataladi. Shu sababdan jiddiy ishlarni topshirib bo'lmaydi.

Yuqoridagi o'nta toifa orqali siz o'z shaxsingizni aniqlashingiz mumkin.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zarifboy Ibodullayev "Asab va ruhiyat".
2. Hakimova I.M. "Xulq atvor psixologiyasi".
3. Zufarova M.E "Umimiy psixologiya".